



LOYIHALARGA INVESTITSİYALARNING JALB ETILISHI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasini mudiri

Sultonova Zahro Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
nazariyasi va tarixi yo'nalishi

1-kurs magistranti, Orcid: 0009-0001-1973-7008

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15392884>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 13-May 2025 yil

KEYWORDS

*Investitsiya, investitsiyalarni
jalb qilish, eksport, xalqaro
iqtisodiyot, investor*

ABSTRACT

Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning keng jalb qilishning amaldagi holati tahlillari, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar, investitsiyalarni jalb qilishning asosiy usullari, samarali strategiya yo'llari ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda investitsiyalarni jalb etish har qanday loyiha muvaffaqiyatining muhim omili hisoblanadi. Sarmoyadorlarni jalb qilish jarayoni turli moliyaviy manbalar, shu jumladan xususiy investorlar, venchur kapital, davlat grantlari va xalqaro moliya institutlari orqali amalga oshiriladi. Muvaffaqiyatli investitsiya jalb qilish uchun aniq biznes-reja, innovatsion yondashuv va ishonchli boshqaruv tizimi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, investorlarning ishonchini qozonish uchun loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirish ham muhim hisoblanadi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilanishi va turmush farovonligini oshirish negizida hududlarga investitsiyalarni keng jalb qilish muhim o'rin tutadi. Shu boisdan Davlatimiz rahbari 2023-yil 18-yanvar kuni "Eksport, investitsiya va mahalliy sanoatda 2024-yilda turgan vazifalar bo'yicha selektor yig'ilishi" da: "Yalpi ichki mahsulotni oshirish bo'yicha katta marra olinganini, lekin bunga faqat ichki investitsiya va ichki bozor bilan erishib bo'lmashligini qayd etdi. Xususan, "Yagona to'g'ri yo'limiz – xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko'paytirish" deb alohida ta'kidlab o'tdilar.

Bundan ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu boisdan, Davlatimiz rahbari tomonidan investitsiya, sanoat va eksportga bevosita mas'ul bo'lgan vazirlik, idora, uyushma, chet eldagi vakolatxonalar hamda hudud rahbarlarining investitsiya yo'nalishiga mas'ul o'rinbosarlarining ushbu yo'nalishda olib borayotgan ishlari yetarli darajada emasligini alohida aytib o'tildi. O'zaro bog'langan va dinamik global iqtisodiyotda investitsiyalarni keng jalb qilish iqtisodiy farovonlikni oshirishi bilan birgalikda, davlatlar uchun strategik yo'nalishlarga aylanib bormoqda. Barqaror me'yoriy-huquqiy bazadan innovatsion rag'batlantirishgacha, malakali ishchi kuchlarini tarbiyalashdan texnologik yutuqlarni qamrab olishgacha, investitsiyalarni kiritish yaxlit yondashuvni talab qiladi. Xorijiy

investitsiyalarni jalb qilishning nozik tomonlarini ochib, mustahkam, dinamik va global miqyosda raqobatbardosh investitsiya kiritish landshaftini yaratish alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr bozorining bugungi kundagi jadal o'sib borish tendensiyalarini kundan-kun kuzatib borar ekanmiz, investitsiyalarni jalb qilish masalasi bu borada kun tartibidagi muhim rolda ekanligi namoyon bo'lib qolaveradi. Bu esa, biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun muhitni yaratishga bo'lgan qat'iy majburiyatni yuzaga olib chiqishga asos bo'ladi. Ushbu maqola investitsiyalarni keng jalb qilishning mexanizmlarini o'rganib, mamlakatning turli mintaqalardan investitsiyalarni jalb qilishning samaralarini tashkil etuvchi asosiy ustunlarni o'rganadi.

Mamlakatimiz Prezidenti raisligida 2019 yil 8 yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha yangi bosqichma-bosqich tizim joriy etilishi muhokama qilindi.

Yangi, 4 bosqichli tizimning joriy etilishi hududlar va tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar miqyosini kengaytirish, ularning amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish imkonini berishi qayd etildi.

-Birinchi bosqichda viloyat hokimlari har haftada bittadan tuman yoki shaharga borib, elchilar bilan aloqa o'rnatgan holda, u yerga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi. Tarmoq rahbarlari ham har haftada bitta viloyatga borib, mahalliy korxonalar bilan birga amaldagi loyihalarni bajarish va qo'shimcha investitsiya loyihalari bo'yicha ish olib boradi. Bosh vazir va uning o'rinbosari elchilar ishtirokida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish holatini muntazam muhokama qilib boradi. Natijalariga qarab, hokimlar va tarmoqlar rahbarlari rag'batlantiriladi yoki ularga nisbatan ish haqining 50%i miqdorida jarima qo'llanadi.

Hududlarga birlashtirilgan respublika idoralari rahbarlari viloyat hokimlari va elchilar bilan birgalikda har bir tuman (shahar)da to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar holatini o'rganib, ularning ijrosini jadallashtirish bo'yicha aniq choralar ko'radi. Shuningdek, qo'shimcha loyihalar bo'yicha takliflar ishlab chiqib, xorijiy investorlarni jalb qiladi.

-Ikkinchi bosqichda Investitsiya qo'mitasi hududlar va tarmoqlarning investitsiya loyihalari bo'yicha takliflarini umumlashtirib, samaradorligini baholaydi va yagona elektron onlayn bazani shakllantiradi.

-Uchinchi bosqichda Tashqi ishlar vazirligi hamda hududlarga birlashtirilgan elchilar yagona elektron bazaga kiritilgan loyihalarga xorijiy investorlarni jalb etadi.

-To'rtinchi bosqichda Vazirlar Mahkamasi saralab olingan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlar bilan tegishli kelishuvlarni rasmiylashtirib, ijrosini nazoratga olish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni tasdiqlaydi.

Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksell), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va b. ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo'lishi mumkin. Uning quyidagi turlari mavjud: davlat investitsiyasi — davlat byudjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi; chet el investitsiyasi — xorijiy davlatlar,

banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi; xususiy investitsiya — xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi. Investitsiya qo‘yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo‘linadi.

Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va b. qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga qo‘yiladigan investitsiya, real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag‘lar qo‘yish shakllarida amalga oshiriladi. Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag‘lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo‘jalik yuritish sub’yektlarining boshqa mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, nou-xauni berish, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va b.ga mablag‘ sarflash) ko‘rinishlari bor. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya faol o‘sib bormoqda: 1980-yillar o‘rtalarida jahon bo‘yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1990-yillar o‘rtalariga kelib investitsiya hajmi 2 trillion dollardan oshdi.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanilmoqda. O‘zRda 1996-yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobidan kapital qo‘yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiya va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo‘lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladi. Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag‘lari, chet el investitsiyalari, korxonalarining o‘z mablag‘lari va aholi jamg‘armalari qatnashmoqda.

Respublikada aholining qimmatli qog‘ozlarga jamoaviy investitsiyani amalga oshiradigan xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog‘i rivoj topdi. 2000-yilda moliyalashtirishning jami manbalari hisobidan mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 milliard so‘m, shu jumladan, 810 million AQSH dollari investitsiyalandi. Uning 30,3 % ni respublika byudjeti, 39,1 % ni korxonalar va aholi mablag‘lari, 7,5 % ni banklar kreditlari va b. qarz mablag‘lar, 21,7 % ini chet el investitsiyalari va kreditlari, 1,4 % ni byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari tashkil qiladi. Respublikada investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda „Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida“ (1995-yil 5-may), „Investitsiya faoliyati to‘g‘risida“ (1998-yil 12-dekabr), „Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida“ (1998-yil 30-aprel), „Chet el investitsiyalari to‘g‘risida“ (1998-yil 30-aprel), „Lizing to‘g‘risida“ (1999-yil 14-aprel), „Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida“ (2001-yil 30-avgust) qonunlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Investitsiya faoliyatida investorlar har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p xatarlarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini su-g‘urta qilish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda xorijiy

investitsiyalarni sug'urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan „O'zbekinvest“ eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) VA BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI**, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/16, 33-37.
2. G Shamsiddinov, „iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Durdona Turayeva." **GLOBAL IQLIM O „ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHNING ZAMONAVIY, INNOVATSION USULLARI.**" Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 103-106.
3. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **KLIENT-SERVER ARXITEKTURALARI**, Наука и инновация, 2025/3/25, 113-119.
4. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, **VIRTUAL BORLIQ VA UNING ASOSIY TUSHINCHALARI**, Наука и инновация, 2025/3/24, 52-58.
5. G'iyosjon Shamsiddinov, Barchin Ro'ziqulova, Laziza Inatillayeva, **BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/10/21, 39-41.
6. Л Турсунова, С Жураев, **ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024, 35-37.
7. DO Israilovich, TL Komilovna, **Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering**, European journal of innovation in nonformal education, 2022, 369-373.
8. Ro'Ziqulova Marjona Jonuzoq Qizi, Tursunova Luiza Komilovna, **INFORMATIKA FANINI O 'QITISHDA SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**, Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025, 63-66.
9. Луиза Комиловна Турсунова, Гиесжон Шамсиддинов, **Образ педагога в информационном мире, "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy Anjuman**, 2024/2/23, 421-426.
10. Зебинисо Абдулхакимовна Абдувалиева, Турсунова Луиза Комиловна, **Математический аппарат методов принятия решения документооборота в ВУЗах**, 2022, 286-289.
11. Alijon Muhammadiyev, Shukurullo Aliqulov, **PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION**, Наука и технология в современном мире, 2024, 90-92.
12. Sh Aliqulov, M. Yaxiyaxonova. **Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim ...**, 2024.
13. ALIQULOV SHUKURULLO FAYZULLO, **TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH**, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 45 | ISSUE – 2 January – 2024, 2024/1/2, 61-65.

14. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Iqtidorli talabalarni fan, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilishning zamonaviy usullari, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 54-57.
15. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Hozirgi globallashtirish jarayonida intellektual yoshlarning ijtimoiy rivojlanish davridagi roli, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 40-43.
16. Mavlonov Sh Sh, FB Jurayeva, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, Экономика и социум, 2024, 234-238.
17. Feruza Jo'rayeva, Sarvinoz Xurramova, MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI TAHLILI, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/9, 8-12.
18. Feruza Jo'rayeva, TA'LIM JARAYONIDA AQL XARITALARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI, Молодые ученые, 2024/4/8, 159-166.
19. Feruza Jo'rayeva, Gulhayo Hamdamova, MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/3/31, 31-35.
20. Tuxtanazarova N. A Davletov A. J. , Mavlanberdiyev S. F., Norqulova Z. N., Jurayeva F. B., Jurayeva D. Sh, STUDY RATIO OF MOISTURE AND BIOME FOR EXTREME SITUATION, ВЫСШАЯ ШКОЛА• №23 / 2021, 2021/12/23, 34-36.
21. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.
22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 146-151.
23. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATSION USULLARI." Наука и инновация 2.38 (2024): 161-164.
24. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 288-290.